

**“O‘ZBEKISTONDA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINI
TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOY-MA’NAVIY OMILLARI”**

Malikov Behzodjon Qurolovich

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.11.2025

Revised: 30.11.2025

Accepted: 01.12.2025

KALIT SO‘ZLAR:

*davlat, ma’naviyat,
qadriyat, odoq-axloq
kodeksi, etika,
korrupsiya*

*Ushbu maqolada davlat fuqarolik xizmati tizimini
ma’naviy sog‘lomlashtirish, davlat va xizmat
nazorati shakllari, ma’naviyati talablarini
ta’minlash, ma’naviy baholash mezonlaridan
kadrlarni tanlash, taqsimlash, imtihon qilishda
foydalanish mexanizmlari asoslangan.*

O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirishning bir qator ijtimoiy-ma’naviy omillari mavjud va ularsiz bu xizmatni rivojlantirish qiyin kechadi. Avvalambor, davlat fuqarolik xizmatida shaffoflikni ta’minlash va fuqarolar bilan ochiq muloqotni rivojlantirish xalqning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. O‘z navbatida, davlat fuqarolik xizmatchilarining axloqiy tamoyillar asosida ishlashi, mas’uliyat va halollikni targ‘ib qilish fuqarolar bilan ijobiy munosabatlarni rivojlantiradi. Tizimda elektron xizmatlar va raqamli platformalarning joriy etilishi fuqarolar uchun xizmatlardan foydalanishni osonlashtiradi va samaradorligini oshiradi. Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatlari tizimida fuqarolar va nodavlat tashkilotlarning faol ishtiroki xizmatlarning sifatini oshirishda muhim omildir. Korrupsiyaning oldini olish va adolatli tizimni shakllantirish orqali fuqarolar manfaatlarini himoya qilinadi. Ushbu ijtimoiy-ma’naviy omillar davlat xizmatlarini adolatli, samarali va aholining ehtiyojlariga mos ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi.

Prezident Sh.Mirziyoev ta’biri bilan aytganda, “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni - bu Bosh vazir yoki uning o‘rinbosarlari bo‘ladimi, hukumat a‘zosi yoki hududlar hokimi bo‘ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lib qolishi kerak”⁵⁴. Bu borada ilg‘or xorijiy tajribalar tahlil qilingan. Aksariyat rivojlangan mamlakatlar tajribasida davlat xizmatchisining axloqiy kodekslari qabul qilingan va ularda davlat xizmatchilari xulqining namunaviy qoidalari va mezonlariga e’tibor qaratadi va davlat xizmatchisi har qanday sharoitda ham o‘zining rasmiy holatidan shaxsiy foyda olish huquqiga ega emasligi belgilab qo‘yilgan. U o‘zining shaxsiy manfaatlari xizmat vazifasi bilan to‘qnash kelishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Davlat fuqarolik xizmatchisi bunday holatlar yuzaga kelmasligi uchun mas’ul hisoblanadi. Bundan tashqari, bunday kodekslar shunday vaziyat yuz berganda qanday choralar ko‘rish zarurligini ham ko‘rsatib o‘tadi. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida manfaatlar to‘qnashuviga ta’rif berilgan bo‘lib⁵⁵, unda davlat xizmatchisi va davlat manfaatlari to‘qnashuvining chegaralari belgilab berilgan.

Odatda, davlat fuqarolik xizmati fuqarolarning ehtiyoj va talablarini hisobga olgan holda yaratiladi. Shu bois, davlat fuqarolik xizmati jarayonlarida jamoatchilik nazorati va fikr-mulohazalarini tinglashga keng e’tibor qaratilmoqda. Kadrlarning malakasini oshirish va xizmat ko‘rsatish madaniyatini takomillashtirish davlat fuqarolik xizmati samaradorligini oshiradi. Davlat fuqarolik xizmatlarining shaffof bo‘lishi aholining ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi, shuningdek, korrupsiyaning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmati samaradorligini oshirish uchun ijtimoiy-ma’naviy va texnologik omillarni birlashtirib, aniq natijalarga erishishga qaratilgan siyosat olib borilmoqda. Buning natijasida fuqarolarning davlat xizmatlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va jamiyatda barqaror rivojlanishga yordam berish maqsad qilingan.

⁵⁴ Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –Toshkent.: O‘zbekiston. 2017. –B. 6.

⁵⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni // www.lex.uz

Davlat fuqarolik xizmatini tashkil etishning ma'naviy omillari va ularning ta'riflari

No	Ma'naviy omillar	Ta'rifi
1	Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik	Davlat xizmatchilarining o'z kasbiy faoliyatida milliy an'analar va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilishini ta'minlash.
2	Odob-axloq me'yorlariga rioya qilish	Davlat xizmatchilarining yuksak odob-axloq tamoyillari asosida ish yuritishi, xizmat burchini halol va sidqidildan bajarishi.
3	Vatanparvarlik hissini shakllantirish	Davlat xizmatchilarining o'z Vataniga sadoqatli bo'lishi, fuqarolar manfaatini ustuvor qo'yishi.
4	Adolat va xolislik tamoyillariga rioya qilish	Qarorlar qabul qilishda adolatli va xolis bo'lish, manfaatlar to'qnashuvidan hazar qilish.
5	Ma'naviy-ma'rifiy saviyani oshirish	Davlat xizmatchilari o'rtasida doimiy ravishda ma'naviy va ma'rifiy ishlarni kuchaytirish, ularning bilimlarini oshirish.
6	Jamoatchilik bilan muloqot madaniyati	Davlat xizmatchilarining fuqarolar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini oshirish, ularning muammolariga e'tiborli bo'lish.
7	Halollik va mas'uliyatni shakllantirish	Davlat xizmatchilarining halol va mas'uliyatli bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.
8	Tanqid va takliflarga ochiq bo'lish	Davlat xizmatchilarining konstruktiv tanqid va takliflarni qabul qilishi, ular asosida faoliyatini takomillashtirishi.

Davlat fuqarolik xizmatida ma'naviy omillar ushbu tizimning rivojlanishi, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Davlat xizmatchilarining Vatanga sadoqati va fidoyiligi ularning mehnat samaradorligi va aholiga xizmat ko'rsatishdagi mas'uliyatini oshiradi. Ularining o'z faoliyatida insoniylikka tayangan holda ish tutishi aholiga bo'lgan mehr-muruvvatni, odamlar bilan muloqotda hurmat va e'tiborni oshiradi. Ma'naviy qadriyat sifatida adolatga amal qilish va korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik davlat fuqarolik xizmatchilari uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Davlat fuqarolik xizmatchilari o'rtasida milliy qadriyatlarga, madaniyat va ma'rifatga e'tiborli bo'lish davlat fuqarolik xizmati madaniyatini oshirsa, o'z shaxsiy manfaatlaridan ko'ra, jamoatchilik manfaatlarini ustuvor, deb bilishiga ta'sir ko'rsatadi. Muammoga bunday yondashuv davlat

fuqarolik xizmatchilarining aholiga xolisona yordam ko'rsatishga va davlat xizmatiga sadoqat bilan yondashishga xizmat qiladi. Ma'naviy omillar davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirishda asosiy ustunliklarning biri hisoblanadi. Davlat xodimlarining ma'naviy saviyasini oshirish va jamiyatga sadoqatini mustahkamlash orqali davlat fuqarolik xizmatining sifatini yaxshilash, xalq ishonchini qozonish va umumiy ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash mumkin.

Zamonaviy jamiyatda ma'naviyat va axloqning o'rni hisobga olingan holda asosiy e'tibor aynan davlat xizmatining ma'naviy-axloqiy ta'rifi qaratilishi lozim. Shunisi e'tiborliki, so'nggi yillarda mamlakat Prezidenti ham, davlat oliy organlari ham jiddiy tarzda ushbu muammolarni yechish bilan shug'ullanmoqda. Prezident Sh.Mirziyoev ta'kidlagani kabi "Eng muhim vazifamiz - mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat. Buning uchun el-yurtimiz, avvalo biz - rahbarlarning faoliyatidan rozi bo'lishi kerak"⁵⁶. Rahbar faoliyatidagi prinsipiiallik, so'z va ish birligi, adolat, halollik va kamtarlik muhim ma'naviy-axloqiy omillardan hisoblanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining ma'naviy-axloqiy mas'uliyati doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish ham juda muhim. Korrupsiya davlat xizmatining ishonchliligini va samaradorligini susaytiradi. Davlat xizmati tizimida ma'naviy-axloqiy jihatdan mas'uliyatli xodimlar qonunlarga, o'z vijdoniga tayanib ishlaydilar. Ular o'z vazifalarini faqat biron bir shaxsiy manfaat uchun emas, balki jamiyatning umumiy manfaatlari uchun bajaradi. Ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlar jamiyatda birlik, tenglik va barqarorlikni ta'minlashga yordam beruvchi asosiy tamoyil hisoblansa, ma'naviy-axloqiy omil esa davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy va axloqiy jihatdan to'g'ri faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Davlat fuqarolik xizmati nafaqat ma'muriy faoliyatni amalga oshirish, balki jamiyatni adolatli, tinch va farovon qilishda ham muhim ma'naviy omillarni amalga oshiradi.

Davlat fuqarolik xizmatining asosiy qadriyatlari va ijtimoiy-ma'naviy omillari davlat xizmatining sifati va samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bizning fikrimizcha, halollik va oshkoralik, adolat va xolislik, jamoat manfaatlariga xizmat qilish, mas'uliyat va javobgarlik, professionallik va kompetentlik, vatanparvarlik, xalq bilan muloqot fuqarolik xizmatining asosiy qadriyatlaridir. Masalan, adolat davlat fuqarolik xizmatining asosiy qadriyatlaridan biri bo'lib, xizmatchi har bir fuqaroning huquqlari va

⁵⁶ Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, kat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: «O'zbekiston», 2017. - 104 b.

erkinliklarini teng va adolatli tarzda hurmat qilishi kerak. Adolat davlat fuqarolik xizmatining barcha bosqichlarida fuqarolarni bir xil mezonlarga ko'ra baholashni, ularning manfaatlarini himoya qilishni va diskriminatsiyaga yo'l qo'yimaslikni talab qiladi. Halollik ham davlat fuqarolik xizmatining boshqa bir muhim ma'naviy qadriyatidir. Xolislik, ijtimoiy adolatni ta'minlashda, har bir fuqaroning ehtiyojlarini teng baholashda muhim rol o'ynaydi. Bu kabi ijtimoiy-ma'naviy omillar davlat fuqarolik xizmatida jamiyatning umumiy madaniy va ma'naviy holatiga ijobiy ta'sir qiladi. O'z navbatida milliy qadriyatlar va an'analar davlat fuqarolik xizmatining ma'naviy va ijtimoiy asosini tashkil etadi. Davlat fuqarolik xizmatchilari o'z faoliyatlarida milliy madaniyat va an'analarga hurmat bilan yondashishi jamiyatdagi tinchlikni va barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar davlat xizmati jarayonlarida yuqori axloqiy va madaniy me'yorlarning amalda qo'llanilishini ta'minlaydi.

Germaniyadagi davlat xizmatchisining xizmatdagi martabasi ko'tarilishi bir qator batafsil belgilangan ma'naviy-axloqiy shartlarni bajarish bilan bog'liq bo'lib, bu shartlar xizmatning turli darajalari va turkumlarida namoyon bo'ladi. Umum qabul qilingan qoidaga ko'ra, lavozimda ko'tarilish uchun davlat xizmatchisi ma'naviy-axloqiy jihatdan ham imtihon topshirishi lozim. Fransiya ham davlat xizmati lavozimlariga xizmatga olishda tanlov o'tkazish ustuvor bo'lgan mamlakatlar jumlasiga kiradi. Fransiyada davlat xizmatiga yollashda barcha fuqarolar teng imkoniyatlarga ega ekanligi tamoyiliga amal qilinadi, insonni jinsiga qarab kamsitishga yo'l qo'yilmaydi.

Yaponiyada davlat xizmatiga kirishga fuqarolarning teng huquqi borligi tamoyiliga amal qilinadi. Faqat Yaponiya fuqarosigina davlat xizmatchisi lavozimiga da'vogarlik qilishi mumkin. Davlat xizmatiga tayinlash ham og'zaki, ham yozma o'tkazilishi mumkin bo'lgan tanlov imtihonlari asosida amalga oshiriladi. Xizmatda ko'tarilayotganda ham amaldorlar ularning kasbiy malakasini tasdiqlovchi hamda ma'naviy-axloqiy fazilatlariga doir imtihon topshiradi. Har yili har bir rahbar o'z qo'l ostidagi davlat xizmatchilari faoliyatini, jumladan, ma'naviy-axloqiy baholaydi va ularning har biriga asosli xulosa yozadi.

Xorijiy davlatlar tajribasida davlat xizmatining barcha turlarida xodimning ma'naviy jihatdan holatini nazorat qilib boradigan mexanizmlar ishlaydi. Etika bo'yicha komissiya davlat xizmatchilarining axloqiy qilmishlarini ko'rib chiqib, ularga jamoatchilik jazosini berishi, jamoatchilik ishonchsizligini bildirish, ma'muriy jazo qo'llash taklifini kiritish huquqiga ega. Boshqaruv faoliyatida bir qator masalalar yechimini me'yoriy tartibda,

qonunlar, xokimiyat qarorlari, lavozimiy ko'rsatmalar shaklida qonuniy joriy qilish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Malikov B.Q. Davlat xizmatini tashkil etishda "Yapon mo'jizasi" va uning o'ziga xos xususiyatlari // "Imom Buxoriy saboqlari" jurnalining 2021 yil 2-soni b.91.
2. Malikov B.Q. Xitoy xalq respublikasining davlat xizmati siyosati tarixida // O'zMU xabarlarini jurnalining 2021 yil 1/6/2 100-103 bet.
3. Malikov B.Q. Amir Temurning davlat boshqaruvidagi siyosiy tajribalar // QarDU xabarlarini 1-son-15.02.2022 120-123 b.
4. Malikov B.Q. Davlat xizmatlarini kategoriyalashtirish siyosatiga doir metodologik ta'limotlar // World scientific research journal (ISSN: 2472-3703.Volume-10_Issue-1_December 2022) P.p.188-183
5. Malikov B.Q. Davlat xizmatlarini kategoriyalashtirish siyosati istiqbollari // World scientific research journal (ISSN: 2472-3703.Volume-10_Issue-1_December 2022). P.p.200-203
6. Malikov B.Q. Davlat kadrlar siyosatini shakllantirish va amalga oshirishning xorijiy tajribalari // World scientific research journal (ISSN: 2472-3703.Volume-10_Issue-1_December 2022) P.p.213-215
7. Malikov B.Q. Davlat xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy yo'naltirish konsepsiyalari // World scientific research journal (ISSN: 2472-3703.Volume-10_Issue 1_December 2022) P.p.193-195
8. Malikov B.Q. Alisher Navoiyning vatan va davlat xizmatchisi sifatidagi siyosiy qarashlari // "Pedagogs" international research journal (ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995. Volume-27, Issue-1, February – 2023) P.p.78-80
9. Malikov B.Q. Davlat xizmatlari to'g'risidagi qarashlar evolyusiyasining nazariy asoslari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences ((E)ISSN:2181-1784.SJIF 2023 = 6.131 // ASI Factor = 1.7 3(1/2), Jan., 2023.) P.p.621-623
10. Malikov B.Q. Davlat xizmatini rivojlantirishda kategoriyalashtirish siyosatiga sivilizatsion yondashuvlar // World scientific research journal (ISSN: 2472-3703 Volume-12_Issue-1_February-2023) P.p.158-161